

O‘ZBEKISTONNING O‘ZIGA XOS SHAROITIDA SOYANI YETISHTIRISHNING AHAMIYATI

Z.Z.Qodirov - doktorant, Y.Sayfiyeva - magistrant, N.Husanboyeva - talaba, TIQXMMI

Annotatsiya

Dunyo aholisining ko‘payishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining kundan – kun oshib borishiga sabab bo‘lmoqda. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida don va dukkakli ekinlar seleksiya va urug‘chilik yo‘nalishiga, yetishtirishga jiddiy e‘tibor berib kelmoqda. Soya o‘simligining yer yuzida keng va ko‘p tarqalishi, soya donining tarkibidagi oqsil, moy va boshqa muhim organik va ma‘danli moddalarning miqdori va nisbati uni har xil tarmoqlarda qo‘llashga imkon beradi. Soya donidan moy, margarin, pishloq, sut, un qandolot mahsulotlari, konservalar ishlab chiqariladi. Yer yuzida ishlab chiqarilayotgan o‘simlik moyining 40 foizni soya o‘simligiga to‘g‘ri kelishi hamda respublikamizning o‘ziga hos iqlim sharoitida soya yetishtirishning ahamiyati yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish hamda

liberallashtirishga oid chora-tadbirlarni tadbiq etish, xalqimizning faravonligini yuksaltirishda eng muhim hayotiy yo‘limiz bo‘lib qolmoqda.[1]

Ishlab –chiqarish tarmoqlarini, chunonchi qishloq xo‘jaligini isloh qilishni kuchaytirilishi, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini salmog‘ini ko‘paytira borib, qishloqlarga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, chet el investitsiyalarini aynan qishloqlarga yo‘naltirishni yo‘lga qo‘yilishi sohalarni modernizatsiya va deversifikasiya qilinishi, mamlakatimizda soyachilikni rivojlantirilishida qishloq xo‘jalik ekinlari orasida soyaning ahamiyati juda yuqori hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ -2832-sonli qarori soyachilikni tashkil etish hamda 2017 yil 24 iyuldagi PQ -3144-sonli qarori bilan to‘ldirilishi, Respublikamizda soyachilikni tashkil etish va rivojlantirilishiga asos bo‘ldi[2-3].

Mazkur qarorlari bilan Respublikamiz viloyatlarida soya ekinini ekish va undan yuqori hosil olish uchun 2017 yilda soya ekishga quyidagi yer maydonlari ajratildi. Joriy yilda qaror bo‘yicha respublikada asosiy ekin sifatida 8,0 ming gektar, takroriy ekin sifatida 18,9 ming gektar maydonga soya ekish rejalashtirilib, dastlab sohaning olim va mutahassislari tomonidan respublika viloyatlarining soyani o‘sish va rivojlanishi uchun mos bo‘lgan, havo haroratining mo‘tadil hamda suv bilan yetarli miqdorda ta‘minlangan 54 ta tumanlarida soya ekish belgilandi.

Soya dunyo dehqonchiligida ekin maydoni hajmiga ko‘ra, bug‘doy, sholi, makkajo‘xoridan keyingi o‘rinda bo‘lib, 122 mln.gektardan ortiq maydonda yetishtiriladi. Dunyo bo‘yicha soya donidan olinadigan o‘simlik moyi jahonda is‘temol uchun ishlab chiqariladigan moyning 29 foizini tashkil etadi. Soya donida 50 foizgacha oqsil, 25 foizgacha moy bo‘lganligi, undan 400 dan ziyod turli xil oziq-ovqat va chorva ozuqasi mahsulotlari olinadi. Shuning uchun ham soya eng qimmatbaho oqsil tanqisligini oldini oluvchi ekin sifatida tan olingan.

Soya urug‘chiligida Krasnodar o‘lkasi va AQSH dan keltirilgan soya navlari bizning sharoitimizda yuqori hosil bermoqda. Soyani takroriy ekish rejalashtirilgan ekan, albatta navlarni to‘g‘ri tanlash lozim. Ertapishar navlarni 1200-1500 C⁰ o‘rtapishar navlari esa 1800-2100 C⁰ talab qiladi. Takroriy ekilganda 1400-1500 C⁰ haroratni o‘simlik to‘play oladi. Uni takroriy ekishda —To‘marisl , —Oyjamoll, —Oltintojl , —Genetikl,Parvozl navlaridan foydalanish mumkin. Soyaning ildizlarida tugunaklar hosil qilish uchun ekishdan oldin urug‘larni nitradin shtammlari bilan ishlab ekish yaxshi natija beradi, birinchi marta soya ekiladigan dalalarda soya ildizida tugunaklar hosil bo‘lmaydi. Soya navlari ekish me‘yori gektariga 60-70 kg bo‘lib, qator oralari 70 sm kenglikda ekilganda yaxshi hosil berishi tajribada tasdiqlangan.[4]

Respublikada 2017 yil hosili uchun ekilgan soya maydonlari

1-jadval

Viloyatlar	Reja maydon, ga	Haqiqatda ekildi, ga	Farqi (+ -), ga	Rejani bajarilishi, %
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	950	730	-220	77
Andijon	1602	1089	-513	68
Buxoro	3950	1777	-2173	45
Jizzax	1800	720	-1080	40
Qashqadaryo	3000	1230	-1770	41
Namagan	3095	2073	-1022	67
Samarqand	1560	1045	-515	67
Surxandaryo	2529	1087	-1442	43
Sirdaryo	2500	400	-2100	16
Toshkent	2400	840	-1560	35
Farg‘ona	1500	1135	-365	76
Xorazm	1100	737	-363	67

1-jadvalda ko‘rinib turibdiki, soya yetishtirishning bir qator muammolari rejadagi hosildorlikga erishishda to‘siq bo‘lmoqda. Birgina misol Buxoro viloyati misolida oladigan bo‘lsak, rejada 2017-yilda 3950 ga maydon ekilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, Shundan 1777 ga ekilgan xolos. Soya ekish agrotexnologiyasi qo‘pol ravishda buzilganligi sababli hosildorlik salbiy natija qayd etilgan.

Buxoro viloyati sharoitida dukkakli don o‘simliklari bo‘yicha tadqiqotlar kam o‘tkazilganligi sababli, soya navlarini tanlash, ulardan yuqori va sifatli hosil olish agrotexnikasini, xususan ekish muddati va meyyori kabi omillarni o‘rganish keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqazo etadi.

Soya navlarining dala unuvchanligi, tup sonlari, o‘simliklarning biometrik o‘lchamlari dala ekinlarining Davlat nav sinov metodikasi bilan aniqladi. Tuproqning sho‘rlanish darajasi – A.E.Arinishkina (1970) va V.A.Kovde (1983) metodikasi bilan va barg yuzasi A.A.Nichiporovich (1971) metodikasi bilan aniqlanadi.

2017-yilning mart oyida soha olimlari va mutaxassislarida iborat Respublika ishchi guruhi hududlarning soya yetishtirish imkoniyatlarini o‘rganib, 54 ta tumanda soya yetishtirish mumkin ekanligi to‘g‘risida tavsiya berildi. Ammo joylarda soya ekinini joylashtirish to‘g‘risidagi viloyatlar va tuman hokimlarining qarorlariga asosan asosiy maydonlarda 114 ta, takroriy maydonlarga 120 ta tumanlarda soya ekilgan. Aksariyat hollarda tuman hokimliklari tomonidan soya ekish uchun hosildorligi past bo‘lgan hamda suv ta‘minoti og‘ir va shartli sug‘oriladigan (zaxiradagi) maydonlar ajratigan. Buning natijasida hosildorlik 1-2 sentnerdan oshmagan.

Shuni alohida takidlash kerakki, soya ekishda agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida sifatli o‘tkazilgan tumanlar, fermer xo‘jaliklari 20 sentnerdan 35 sentergacha hosil olishga erishdi. Buxoro viloyati Buxoro tumanidagi —Arbob Botirli va —Sayidmuhammadalil fermer xo‘jaliklari har gektar maydondan 23 sentnerdan, Vobkent tumanidagi —Bodomcha IRPI fermer xo‘jaligi har bir gektar maydondan 22 sentnerdan, Kogon tumanidagi —Abduqodirobodli fermer xo‘jaligi takroriy ekin sifatida ekilgan har gektar maydondan 17-18 sentnerdan hosil olishga erishildi.

Xulosa

O‘rinda shuni takidlash lozimki Respublikamizning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda soya navlarini ilmiy asoslangan holda unumdorligi yaxshi ball baniteti yuqori bo‘lgan, suv ta‘minoti yetarli bo‘lgan hududlarga joylashtirish yuqori hosil olishning garovidir. Demak, soyani yetishtirish bilan qator muhim masalalar hal etiladi, birinchidan, tuproqni biologik azot bilan boyitamiz, ikkinchidan, aholini sifatli ekologik toza o‘simlik moyi bilan ta‘minlaymiz, turli xil mahsulotlar tayyorlaymiz, yangi ish o‘rinlari yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ -2832-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 iyuldagi PQ -3144-sonli qarori
4. O‘zbekiston ovozi ishtimoiy-siyosiy gazetasi Nurali Xalmanovning — Soya – betakror o‘simliklari maqolasi 2017-yil

Ilmiy rahbar:

prof. Isayev S.X.